

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATN USTIDA ISHLASHGA YO‘NALTIRILGAN MASHQLARNING AHAMIYATI

Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

E-mail: jzokirov6@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishlashga yo‘naltirilgan mashqlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Unda o‘quvchilarining o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish, lug‘at boyligini kengaytirish, matn mazmunini to‘g‘ri anglash va uni qayta ifodalash, mantiqiy fikrlash hamda ijodiy yondashuvni shakllantirish kabi muhim jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tezisda zamonaviy darsliklar va pedagogik metodlar yordamida matn bilan ishlash jarayonini samarali tashkil etish, interfaol mashq turlari orqali o‘quvchilarни mustaqil fikrlashga undash, ular nutq madaniyati va kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlash imkoniyatlari namoyish etiladi. Natijada matn ustida ishlash mashqlari o‘quvchilarda ona tili fanini anglash va qo‘llash sifatini yuksaltirishda, shuningdek, ularning lingvistik, madaniy va ijodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutishi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, matn ustida ishlash, lug‘at boyligi, mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, nutq madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalar, interfaol mashq, zamonaviy darslik, lingvistik rivojlanish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili fanini chuqur o‘zlashtirish, ularda mustahkam o‘qish, tushunish hamda nutq madaniyatini rivojlantirish bugungi kunda umumiyo‘rta ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘quvchilar matn mazmunini to‘g‘ri idrok etish, unga tanqidiy nigoh bilan yondashish, o‘z fikrlarini aniq ifodalash orqali til ko‘nikmalarini puxta

shakllantiradilar. Bu jarayonda matn ustida ishlashga yo‘naltirilgan mashqlar muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi[1].

Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda matn bilan ishlash, uni lingvistik, estetik hamda mantiqiy jihatdan tahlil qilish pedagogik faoliyatning ajralmas qismi bo‘lib, bolalarning lug‘at boyligini oshirish, mustaqil fikr yuritish, ijodkorlik va hayotiy voqelikka taqqoslash kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy darsliklarda matn ustida ishlashga qaratilgan topshiriqlarning turli ko‘rinishlari — matnni tahlil qilish, so‘z boyligini kengaytirish, mantiqiy xulosalar chiqarish, dialogik va monologik nutqni rivojlantirish imkonini beradigan mashqlar — o‘quvchilarning bilimini mustahkamlaydi, ularni faol va ijodkor shaxsga aylantiradi[2].

Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf darsliklari va pedagogik tajriba misolida matn ustida ishlash mashqlarining o‘quvchilarga ta’sir doirasi, ularning nutqiy, lingvistik va ijodiy rivojlanishi hamda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishidagi o‘rni tahlil etiladi. Shu bilan birga, interfaol va innovatsion metodlardan foydalangan holda matn ustida ishlash jarayonini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ham beriladi.

Matn ustida ishlash mashqlarining nazariy asosi: Boshlang‘ich ta’limda matn ustida ishlash mashqlari o‘quvchilarda o‘qish, tushunish va fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgani bilan ajralib turadi. Til o‘qitish metodikasi nazariyasida matn tilning amaliy qo‘llanish maydoni sifatida qaraladi; ya’ni matn o‘quvchilarning so‘z boyligi, grammatik bilimlari va nutq madaniyatini namoyon etadigan asosiy lingvistik birlik hisoblanadi[3]. Bunday mashqlar nafaqat grammatik ko‘nikmalarni mustahkamlaydi, balki matn mazmunini anglash, tahlil qilish, undagi asosiy va yordamchi g‘oyalarni ajratish, matnni qayta ifodalash, so‘z boyligini kengaytirish, mantiqiy xulosa chiqarish kabi bilim va malakalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida matn ustida ishlashga yo‘naltirilgan mashq turlari:

Matn mazmunini tushunish va qayta ifodalash mashqlari: Ushbu turdagи mashqlar o‘quvchilarga matnni keng qamrovda tushunish, asosiy mavzuni topish, qahramonlar xatti-harakatlarini baholash hamda matnni o‘z so‘zlari bilan takror ifodalashni o‘rgatadi. Natijada bolalarning nutq madaniyati, fikr bayoni hamda izchil hikoya qilish ko‘nikmalarini rivojlanadi[4].

Lug‘at ustida ishslash mashqlari: Yangi so‘zlarni o‘rganish, sinonim, antonim va omonimlarni topish, so‘z turkumlarini farqlash hamda ulardan gap tuzishda foydalana olish o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytiradi. Bu jarayon orqali bolalar faqat so‘zning shakliy tomonini emas, uning semantik jihatini ham chuqur anglaydilar.

Tahliliy va ijodiy mashqlar: Berilgan matn ustida xulosa qilish, munozara uyushtirish, turli savollarga javob berish, topishmoqlar yechimi, maqollarni izohlash kabi ijodiy topshiriqlar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri xulosa chiqarish, o‘z nuqtai nazarini asoslash kabi ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantiradi[5].

Grafik va imlo mashqlari: Matnni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini qo‘llash, ba’zi so‘zlarning to‘g‘ri talaffuzi va yozuvini mustahkamlash imlo madaniyatini o‘stirishda ahamiyatlidir. Natijada bola nafaqat gapni tuzish, balki uni to‘g‘ri yozish me’yorlarini ham egallaydi.

Matn ustida ishslash mashqlarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni:

Matn ustida ishslash mashqlari o‘quvchilarni faqat matnni tushunish yoki so‘z boyligini kengaytirish bilan cheklanib qolmaydi, balki ularning og‘zaki va yozma nutqini takomillashtiradi. O‘quvchilar matn asosida savol-javob qilish, guruhli va juftlikdagi munozaralar orqali o‘z fikrlarini ravon, tushunarli hamda madaniy ifodalay olishga o‘rganadilar. Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish, interfaol mashqlar orqali o‘quvchilarning shaxslararo muloqotda ishtirok etish malakalari, fikr almashish qobiliyati ortadi[6].

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va interfaol metodlarning qo‘llanilishi:

Hozirgi kunda boshlangan inklyuziv va interfaol ta’lim jarayonida matn ustida ishslash mashqlari nafaqat an’anaviy, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda ham bajariladi. Elektron darsliklar, mobil ilovalar, audio va video materiallardan foydalanish matnni har tomonlama o‘rganish, uni tushunish hamda o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, o‘yinlar, rolli mashqlar, loyihalash metodi kabi interfaol strategiyalardan foydalanish o‘quvchilarda ilg‘or metodik ko‘nikmalarni shakllantiradi. Buning natijasida o‘quvchi nafaqat ko‘rib eslab qoladi, balki faol ishtirop etish orqali o‘qish jarayoniga chuqur kirib boradi[7].

Ilmiy-amaliy tavsiyalar va takomillashtirish yo‘llari: Matn ustida ishslash mashqlarining samaradorligini oshirish uchun darsliklarni o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, til o‘rganish qobiliyatlariga mos ravishda takomillashtirish, ularga ijodiy topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, interfaol metodlardan keng foydalanish zarur[8]. O‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, o‘quvchilarni mustaqil ishlashga yo‘naltirish orqali matn ustida ishslash mashqlari yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Shu tariqa, matn ustida ishslashga yo‘naltirilgan mashqlar boshlang‘ich sinf o‘quvchisida nafaqat til ko‘nikmalarini, balki keng qamrovli kompetensiyalar — lug‘at boyligi, mantiqiy tafakkur, kreativ fikrlash, nutq madaniyati, hamkorlikda ishslash, mustaqil izlanish hamda kommunikativ malakalarni rivojlantirish uchun muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi[9].

Yuqoridagilardan kelib chiqib Boshlang‘ich sinflarda matn ustida ishslashga yo‘naltirilgan mashqlar o‘quvchilarning ona tilidan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va nutq madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ushbu mashqlar orqali bolalar so‘z boyligini boyitish, matnning mazmun-mohiyatini anglash, o‘z fikrlarini aniq ifodalash, matnda ilgari surilgan g‘oya va xulosalarni izchil tushuntirish kabi malakalarni egallaydilar. Shuningdek, interfaol darsliklar,

zamonaviy o‘qitish texnologiyalari va ijodiy topshiriqlardan foydalanish matn ustida ishslash jarayonini yanada sermahsul va qiziqarli qiladi.

Natijada matn ustida ishslash, bir tomondan, o‘quvchilarda lingvistik bilimlar, mantiqiy fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, mustaqil o‘rganish, tanqidiy tahlil, kommunikativ ko‘nikmalarni takomillashtiradi. Bu jarayon boshlang‘ich sinf ta’limining amaliy samaradorligini oshirish, o‘quvchilarda chuqur lingvistik asosga ega, ma’naviy va madaniy jihatdan yetuk shaxslarni shakllantirishga muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Зокиров, Д. (2022). Ona tili va o ‘qish sav odxonligi darslarida matn ustida ishslash yo ‘llari. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(2), 288-291.
2. Zokirov Javohir G‘aybullo O‘g‘li (2023). ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASTER METODLARIDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 2 (Special Issue 4), 76-79. doi: 10.5281/zenodo.7926259
3. Javohir G‘aybullo O‘g‘li Zokirov (2023). ZAMONAVIY ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI FANINING YANGILANISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI. *Academic research in educational sciences*, 5 (NUU conference 3), 90-96.
4. Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li, 1-3-Sinf O‘Quvchilariga Ona Tili Va O‘Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari , *Journal of Innovation, Creativity and Art: Vol. 2 No. 2 (2023): Journal of Innovation, Creativity and Art*
5. Javohir G‘aybullo o‘g, Z. (2023). 1-3-Sinf O ‘Quvchilariga Ona Tili Va O ‘Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 161-163.

6. Zokirov, J., & Matluba, T. (2022). ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O 'RGANISHDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 218-223.
7. O'g'li, Z. J. G. (2022). O'QUVCHILARNING DUNYOQARASHI, BILIMINI OSHIRISHDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING AHAMIYATI. *PEDAGOGS jurnali*, 10(3), 124-129.
8. Zokirov, J. (2022). THE IMPORTANCE OF STRENGTHENING LESSONS IN STUDENTS'MOTHER TONGUE AND READING LITERACY. *Academic research in modern science*, 1(9), 344-348.
9. Yoqubov, S., & Zokirov, J. (2017). OQUVCHILARNI SAVOL BERISHGA ORGATISH USULLARI. In *НАУЧНЫЙ ПОИСК В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ* (pp. 110-112).